



MAHALLA XODIMINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

Uzakov Kaxramon Pazildinovich

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur ishda mahalla xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish masalalari muhokama qilingan. Shuningdek, mavzuga oid ayrim tushunchalarga mualliflik ta'rifi brib o'tilgan.*

Kalit so'zlari: *mahalla, kasbiy kompetentlik, andragogika, malaka oshirish, o'quv mashg'uloti, mexanizm, diagnostika, metodologiya.*

Jahonda yuz berayotgan keskinlik va globalizatsiya davrida fuqarolik inqitularining rolini oshirish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa demokratik islohotlarni jadallashtirishda butun dunyo mamlakatlari hali xamon fuqarolik institutlariga murojaat qilishmoqda. Jumladan, inson huquqlarini ta'minlash, gender tenglik, ijtimoiy himoya, ta'lim olish, yoshlar va ayollar masalalarida jamoat tashkilotlari va fuqarolik institlari imkoniyatlaridan foydalanilmoqda. Bu esa o'z navbatida O'zbekistondagi eng katta fuqarolik instituti bo'lmish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida faoliyat yuritayotgan mahalla sohasini yanada rivojlantirishni buning uchun esa avvalo soha vakillarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni taqazo etadi.

Dunyoning ilg'or ilmiy institutlari va halqaro tashkilotlar, rivojlangan malakatlari fuqarolik institutarining mahalliy va halqaro maydonlarda tutgan o'rni, ushbu tuzilmalar xodimlarining professional faoliyati ilmiy va amaliy jihatdan o'rganilib tadqiq etilmoqda. Xususan, BMT, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti va CIVICUS shular jumlasidan. Masalan 2024 yil 14 martdagi CIVICUS — Fuqarolar ishtiroki uchun Butunjahon ittifoqi Fuqarolik jamiyatining holati to'g'risidagi hisobotida 2023 yil voqealarini tahlil qilindi.[1] Unda dunyo miqyosida fuqarolik institutlari uchun jarayonlar va tendensiyalar (fuqarolik maydonlari va repressiyalar, ijtimoiy jarayonlar, global javoblar) xalqaro fuqarolik jamiyati tashkiloti)ning xalqaro forumlar tajribalaridagi rollari tahlil qilingan. Shuningdek Turkiya, Germaniya, AQSH, Yaponiya kabi davlatlar ham davlat va jamiyat o'rtasidagi ko'prik bo'ladigan tuzilma faoliyatini rivojlantirish yo'lida soha xodimlarining malakalarini zamonaviy tendensiyalar asosida rivojlantirish, ularning kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari modernizatsiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Malakali mahalla xodimlarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik faoliyat samaradorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri – ularda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdan iborat. Kasbiy kompetensiyalarga ega mahalla xodimlarini shakllantirish zamonaviy jamiyat ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Kuzatish va tahlillar shuni

ko'rsatadiki, xodimdagi kasbiy kompetentlik samarali faoliyatning eng asosiy sharti hisoblanadi. Malaka oshirish tizimida mahalla xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida malaka oshirishdagi o'quv jarayoni va uni tinglovchiga (mahalla xodimiga) yo'naltirish nazarda tutiladi (1-rasm).



1-rasm. Xodimda kasbiy kompetentlikni ta'minlash mexanizmi

Talablar jarayoni: Mahalla xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bu ularga qo'yilgan talablarni aniqlash jarayoni hisoblanadi. Jumladan, ularga normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar, majburiyatlar va berilgan vakolatlar, jamiyatdagi o'zgarishlar hamda muammolar ularga qo'yilgan talablar majmuasini belgilaydi. Talablar aniqlab olingach, ushbu talablarni bajarish uchun xodimda bo'lishi kerak bo'lgan kompetensiyalar ro'yxati shakllantiriladi.

Diagnostika jarayoni: Yuqoridagi ish diagnostika jarayonida amalga oshiriladi. Bunda aniqlangan talablar hamda mahalla xodimlari, ularning rahbariyati va fuqarolardan olingan intervyu (so'rovnoma) natijalarini tahlil qilish, zamonaviy tendensiyalarni o'rganish orqali mahalla xodimiga qo'yilgan kasbiy kompetensiyalar ro'yxati shakllantiriladi.

Strategiya jarayoni: Mahalla xodimlari uchun kerak bo'ladigan kasbiy kompetensiyalar shakllangach, ushbu kompetensiyalarni shakllantirish strategiyasi ishlab chiqiladi. Bunda malaka oshirishning oflayn va onlayn shakllari hamda mustaqil ta'limga asosiy e'tibor beriladi. Malaka oshirishning o'quv rejasi va dasturini ishlab chiqishda diagnostika natijalariga tayaniladi.

Metodologiya jarayoni: O'quv rejasi va dasturdagi modullarni o'qitish uchun davlat ta'lim standartlari va talablariga asosan malaka oshirishdagi o'quvlarni



samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi dars ishlanmalari, usul va metodlardan iborat metodologiya yaratiladi.

Yangi O‘zbekistonda ma‘muriy islohotlar mamlakatning eng kichik ma‘muriy boshqaruvi bo‘lgan mahalladan boshlanadi. Shu sababdan bugungi kunda mahalla institutining ijtimoiy boshqaruvdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Natijada so‘ngi yillarda mahallaning zamonaviy transformatsiyasi amalga oshirilmoqda. Bu borada ishlarni samarali tashkil etish uchun mahalla institutining rivojlanishini tarixiy bosqichlarini ham o‘rganish maqsadga muvofiq.

Mahalla tushunchasiga berilgan ta‘riflar bir qancha bo‘lib, ularning deyarli barchasida mahallani ma‘muriy-hududiy birlik va undagi qadriyatga asoslangan oilalar dan iborat jamiyat sifatida ifodalanadi. Masalan O‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta‘rif berilgan:

Mahalla – ma‘lum bir hududda yashovchi oilalarni qo‘shnichilik munosabati bilan ta‘minlaydigan, ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishda jamoatchilik faoliyatini ta‘minlaydigan hududiy birlikda jamoatchilik fikri asosida tuzilgan institut.[3]

O‘zbekiston milliy ensklopediyasida esa “mahalla” — O‘zbekistonda ma‘muriy-hududiy birlik; o‘zini o‘zi boshqarishning xalqimiz an‘analari va qadriyatlariga xos bo‘lgan usuli deb ta‘riflangan.[2]

Maqolaning asosiy subyekti bo‘lgan “**xodim**” tushunchasi borasidagi manbalar o‘rganilganda o‘zbek tilidagi “xodim” so‘zi arab tilida xizmatchi, xizmatkor yugurdak ma‘nolarida qo‘llanilganligi ma‘lum bo‘ldi. O‘zbek tiliga kirib kelganda dastlab o‘tmishda saroy yoki o‘rdada xon, bek va shu kabilarning xizmatini qilib yuruvchi kishi tushunilgan. Bugungi kunda esa “xodim” tushunchasi biror idora yoki muassasada ishlovchi kishi, xizmatchi ma‘nosini anglatadi.[3]

Hozirgi vaqtda mahalla institutda saylov yoki tayinlov va jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi bir nechta mas‘ullar mavjud. Ishda ularni umumiy qilib “**Mahalla xodimlari**” tushunchasi bilan ifoda etilgan.

“Mahalla xodimlari” tushunchasi O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida qo‘llanilmagan. Buning o‘rniga “Fuqarolar yig‘ini (fuqarolar yig‘ini organlari) xodimlari” yoki “fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlari” tushunchasi ishlatilgan. Ammo bugungi kunda ushbu tushuncha “mahalla xodimlari” tushunchasini to‘laligicha bera olmaydi. Sababi bugungi kunda mahallada bevosita fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi xodimi (rais)dan tashqari “mahalla yettiligi” tarkibiga kiruvchi turli tashkilot xodimlari ham faoliyat yuritmoqda. Ular o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlari hisoblanmaydi. Jumladan, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori har biri alohida tuzilma xodimi hisoblanib, o‘zlarining yuqori turuvchi rahbar organlari mavjud.

Bundan tashqari, qonunosti hujjatlari tahlil qilinganda quyidagilar aniqlandi. Prezident va hukumat hujjatlarida asosan yuqorida aytilgan “fuqarolar yig‘ini xodimlari” va “o‘zini o‘zi boshqarish organi xodimlari” tushunchalari qo‘llanilgan.



Ammo keyingi yillardagi hujjatlarda “mahalla tizimi xodimlari” tushunchasi ham faol qo‘llanilmoqda. Ilk marta ushbu tushuncha O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 2-martdagi O‘RQ-606-son Qonunida[4] qo‘llanilgan bo‘lib, shundan keyin ayrim qonunosti (21.12.2023 y. PQ-402) hujjatlarida ham qo‘llanilgan. “Mahalla tizimi xodimlari” tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Mahalla uyushmasi va uning viloyat boshqarmalari, tuman-shahar bo‘limlari xodimlari ham kiritilgan bo‘lib, ular bevosita mahallada faoliyat yuritishmaydi.

Qonunosti hujjatlarida faqatgina 1 marta “**mahalla xodimlari**” tushunchasi qo‘llanilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-martdagi PQ-93-son Qarorining 3-xatboshida “mahalla xodimlari” tushunchasi qo‘llanilgan.

Bugungi kunda mahalladagi mavjud muammo va masalalardan kelib chiqib mahalla yettiligi tuzilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki vaqt o‘tishi bilan kun tartibidagi masalalar dolzarbligi o‘zgaradi, bir tafdan ayrim muammolar bartaraf etilsa, ikkinchi tarafdin yangi muammolar bo‘y ko‘rsatishi mumkin. Bu jamiyatning o‘zgarmas qonuni. Bugungi tezlashgan zamonda bu jarayonlar avvalgidan ko‘ra tezroq amalga oshishi kuzatilmoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki vaqt o‘tishi bilan mahalladagi “yettilik” tarkibi va soni o‘zgarishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib hozirgi kunda bevosita mahallada faoliyat yurituvchi xodimlarni “mahalla xodimlari” deb yuritilib, unga mualliflik ta‘rifi berildi.

Mahalla xodimlari – bevosita o‘z faoliyatini rasmiy ravishda aniq bir (yoki bir nechta) mahallada olib boruvchi muayyan yoki nomuayyan muddatga saylangan yoki tayinlangan vakolatli, shaxslar. Bular mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim, soliq inspektori, jamoatchilik xodimlari va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Bir qarashda yuqoridagi ta‘rif “mahalla yettiligi” tarkibiga juda yaqin. Biroq tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, vaqt o‘tishi bilan mahalladagi ustuvor yo‘nalishlar o‘zgaradi va mos ravishda “mahalla yettiligi” soni va tarkibi ham o‘zgarishi mumkin.

Islohotlar natijasida bugungi mahalla faqatgina hudud aholisiga ijtimoiy ko‘mak berish institutiga emas, balki aholining barcha jabhalarda qo‘llab quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy faolligini oshirish, aholi ma‘naviyatini yuksaltirish, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, obodonlashtirish va tadbirkorlikni ommalashtirish kabi bir qator muhim masalalarni o‘z zimmasiga olgan, xalqning ixtiyori bilan, fuqarolarning ishonchi asosida tashkil etiladigan organga aylanib bormoqda. Hozirgi tez o‘zgarib borayotgan va jadallashib ketgan davrda kishilar muammolarini tezroq va sifatli hal etish muhim. Bu esa islohotlarni bevosita joyni o‘zida hal etish mexanizmini yaratish zarur bo‘ladi. Shu maqsadda prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “mahalla yettiligi” tizimini joriy etildi. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda mahalla faoliyatiga bevosita mas‘ul bo‘lgan va o‘z xizmatini mahallada amalga oshiruvchi xodimlar soni oshirilib, saylangan raisdan tashqari davlat fuqarolik



xizmatchilari ham faoliyat yuritmoqda. Yangi tizim jamiyatimiz uchun katta yangilik bo'lmogda. Albatta mazkur yangilik hali rivojlanish jarayonida.

Bugungi mahalladan aholiga yaqinroq bo'lish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish, bandlikka ko'maklashish va kishilarni ezgu maqsadlari yo'lida birlashtirish hamda mahallada tinchlik va faravonlikni ta'minlashda faol ishtirok etish talab etilmoqda. Bunday vaziyatda mahalla xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Sababi yuqorida ta'kidlangan vazifalarni sifatli amalga oshirish xodimdan mukammal kasbiy kompetentlikni talab etadi. Buning yagona sharti malaka oshirish o'quv dasturlari va modullarini ishlab chiqishda mahalla xodimlarining zamonaviy kompetensiyalarga ham e'tibor berish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Fuqarolik jamiyati holati hisoboti (SOCS) 2024.
<https://publications.civicus.org/publications/state-of-civil-society-report-socs-2024>
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi T.: 2000-2005 y.
3. O'zbek tili izohli lug'ati: "M" va "X" xarfilari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2000–2005. – 704 bet.
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2020-y., 03/20/606/0239-son